

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

BEMORLARDA PULSNI ANIQLASH USULLARI VA UNI BAHOLASHNING O'ZIGA XOSLIGI

Shomuratova Sonajon Aleksandrovna

Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pulsni aniqlash usullari, pulsni baholash, uning o'ziga hosligi. Pulsnинг normal holati, uning jinsga va yoshga bog'liq jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *bemor, puls, yosh, arteriya, ayol, erkak.*

Puls deb, tomir urishi yurak qisqarishi natijasida qon tomirlarining ritmik tebranishlariga aytildi. Chap qorincha tomonidan aortaga ritmik haydaladigan qon arterial oqim ichida tebranishlar hosil qiladi va arteriyalar devori-ning cho'zilishiga va kuchayishiga olib keladi. Puls uning sonlari (chastotasi), ritmi, tarangligi va to'liqligi bilan belgilanadi. Puls normada minutiga 60 dan 80 gacha o'zgarib turadi. Puls keng chegaralarda o'zgarib turishi va uning tezligi yoshga, jinsga, tana va tashqi muhit haroratiga, shuningdek jismoniy harakatga bog'liq. Eng tez puls homilaning ona qornidagi davrida va bola hayotining dastlabki yillarida qayd qilinadi.

25-60 yoshgacha puls barqaror bo'lib qoladi. Ayollar pulsi erkaklarnikiga nisbatan tezdir. Muskul harakati qanchalik kuchli bo'lsa, puls shunchalik tez bo'ladi. Puls arteriyalar yuza joylashgan sohalarda tekshiriladi (55-rasm). Pulsni kuzatish joyi asosan bilak arteriyasidadir. Pulsni chakka arteriyalarida, uyqu, son arteriyalarida ham paypaslab ko'rish mumkin. Puls odatda bilakning kaft yuzasida, I barmoq asosida, bilak arteriyasida aniqlanadi. Muskullar va paylar tarangligi paypaslashga xalaqit bermasligi uchun bemor qo'lini bo'sh qo'yishi kerak. Pulsni bilak arteriyasida tekshirishni albatta ikkala qo'lda o'tkazish lozim va ular orasida farq bo'limgandagina keyinchalik uni bir qo'lda tekshirish mumkin.

Agar biror sababga ko'ra bilak arteriyasida pulsn ni aniqlab bo'lmasa, pulsn chakka yoki uyqu arteriyasida tekshiriladi. Pulsn ning soni, ritmi, tarangligi va to'liqligiga qarab xulosa chiqariladi.

Pulsning tezlashuvi taxikardiya, sekinlashuvi bradikardiya deyiladi. Yaxikardiyada ham, bradikardiyada ham, turli-tuman asoratlarning oldini olish uchun bemorni diqqat bilan kuzatish zarur.

Puls sonlarini kamida 30 soniya ichida sanash lozim. Bunda olingan raqam 2 ga ko'paytiriladi. Aritmik pulsda sanash 1 daqiqa davomida o'tkaziladi.

Puls turtkilari bir xil vaqt ichida birin-ketin kelsa, to'g'ri ritm yoki ritmik puls deyiladi. Aks holda noto'g'ri — aritmik puls kuzatiladi.

Sog'lom odamlarda pulsn ning ko'pincha nafas olishda tezlashuvi va uning nafas chiqarishda sekinlashuvi — nafas aritmiyasi qayd qilinadi, bu adashgan nerv tonusining

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha bolalik va o‘s米尔lik yoshida paydo bo‘ladi. Elektrokardiografiya usuli bo‘yicha aritmiyalarning hamma turlari birmuncha yaxshi aniqlanadi. Puls tarangligi puls to‘lqinining tarqalishini to‘xtatish uchun kuch bilan belgilanadi. Puls tarangligining darajasi bo‘yicha maksimal arterial bosimning katta-kichikligi to‘g‘risida taxminiy xulosa chiqarish mumkin, u qanchalik yuqori bo‘lsa, puls shu qadar tarang bo‘ladi.

Puls to‘liqligi puls to‘lqinini hosil qiladigan qon miqdori bilan belgilanadi va yurakning sistolik hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Yo‘liqligi yaxshi bo‘lganda barmoq ostida yuqori puls to‘lqini seziladi, yomon bo‘lganda puls kuchsiz, puls to‘lqinlari kichik, arang bilinadi.

Puls to‘g‘risidagi ma'lumotlar harorat varaqasida qayd qilinadi. Harorat o‘zgarishi pulsning ham o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun puls to‘g‘risidagi ma'lumotlarning grafik tasviri muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M .A .Fozilbekova, N .A .Nurmatova. Hamshiralik ishi nazariyasi asoslari.
- « O‘qiluvchi», 2002.
2. Q .S.Inamov. Hamshiralik ishi asoslari. - T., 2007.
3. T .I.Umarova, M .A .Qayumova, M .Q .Ibrohimova. Hamshiralik ishi. - T., «Zarqalam», 2005.
4. M .I.Musaeva , A .Q .Bayjanov. Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi va parazitalogiyasi.
5. M .F .Z iyayeva. Terapiya. - T., «llm Ziyo», 2004.
6. S .O .Haydarov, Sh.X .Ermatov. Ichki kasalliklar. — T., «Abu Ali Ibn Sino», 2002.